

**INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY
AND PSYCHOLOGY.
International online conference.**

Date: 27th April-2025

RUS TILIDA URG'U VA UNING KOMMUNIKATIV ROLI

Qurbanova Mavjuda

Respublika musiqa va san'at texnikumi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tilida urg'uning fonetik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Urg'uning so'z ma'nosi, ohangi va grammatik shakliga ta'siri, shuningdek, uning nutqdagi axborot markazini ajratish va emotsiyal ifodani yetkazishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, urg'uning noto'g'ri qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan xatoliklar va urg'uni to'g'ri o'rGANISH usullari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: rus tili, urg'u, fonetika, kommunikatsiya, nutq, ma'no ajratish, emotsiyal ifoda, axborot markazi.

Rus tili fonetik tizimida urg'u alohida o'rin tutadi. Urg'u so'zda ma'lum bir bo'g'inga tushadigan fonetik kuchayishdir. U so'zning ma'nosini, ohangini va hatto grammatik shaklini o'zgartirishi mumkin. Ushbu maqolada rus tilida urg'uning funksiyalari, uning kommunikativ ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Rus tilida urg'u harakatlanuvchan va ixtiyoriydir, ya'ni u har bir so'zda oldindan belgilanmagan bo'lishi mumkin. Bitta so'zning urg'usi grammatik shaklga qarab o'zgarishi mumkin:

- Город (shahar) — Города (shaharlar)
- Вода (suv) — Воды (suvlar)

Urg'u o'zgarishi natijasida so'z ma'nosi butunlay o'zgarishi ham mumkin:

- Замок (qasr) — Замок (qulf)

Shuningdek, rus tilida urg'u so'z ohangini va nutqning melodik oqimini belgilashda ishtirok etadi.

Urg'u nutqda asosiy kommunikativ vositalardan biridir. U quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Urg'u orqali so'zlar yoki gapdag'i ma'noli farqlar aniqlanadi.
2. Urg'u orqali so'zning ohangini, kayfiyatini yoki muallifning hissiy holatini yetkazish mumkin.
3. Gapda urg'u yordamida eng muhim ma'lumot ajratiladi.
4. Urg'u nutqni yanada melodik va esda qolarli qiladi.

Urg'uning noto'g'ri ishlatalishi oqibatlari: Urg'uni noto'g'ri qo'llash natijasida: So'z ma'nosi noto'g'ri tushunilishi mumkin; Kommunikativ xatolik yuzaga keladi; Nutq sun'iy va beg'am eshitiladi; Suhbatdoshning sizga nisbatan e'tibori va ishonchi kamayishi mumkin.

Shu sababli, to'g'ri urg'u qo'yish nafaqat til bilimining belgisi, balki madaniy muloqot madaniyatining ham ko'rsatkichidir.

Urg'uni to'g'ri qo'llash uchun quyidagilar tavsiya qilinadi: Ko'proq eshitish va rus adabiy nutqini tinglash; Maxsus urg'u mashqlarini bajarish; Lug'atlarda urg'u ko'rsatilgan

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th April-2025

so'z shakllaridan foydalanish; She'rlar va proza asarlarini o'qish va to'g'ri urg'u bilan ifodalash.

Xulosa

Urg'u rus tilining ajralmas elementi bo'lib, uning kommunikativ funksiyalari juda kengdir. To'g'ri va mantiqiy urg'u qo'yilishi nutqni yanada ravon, tushunarli va ta'sirchan qiladi. Shuning uchun, rus tilini o'rganayotgan har bir kishi urg'u ustida alohida ishlashi, uni chuqur o'zlashtirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Розенталь Д.Э. "Ударение в русском языке".
2. Зарва Л.А. "Русская орфоэпия и культура речи".
3. Щерба Л.В. "Фонетика русского языка".
4. Аванесов Р.И. "Русское литературное произношение".
5. Рус тили lug'atlari va onlayn manbalar.